

TTPUda suzish bo'yicha "Rektor kubogi" va master- klass o'tkazildi

Joriy yilning 30-may sanasida, Suv sport turlari Respublika Oliy Sport Mahorati Maktabi tomonidan universitet talabachilari o'rtasida suzish bo'yicha mahorat darsi (master klass) tashkil etildi. Tadbirda Oliy Sport Mahorati Maktabi murabbiysi Vangelis Divin xamda O'zbekiston Milliy yoshlar terma jamoasi a'zolari Ma'sud Dilmurodov va Doniyor Salimovlar ishtirok etishdi. Unda talabalarga turli uslubda suzish bo'yicha ma'lumot berilib, yoshlarni sog'lom turmush tarziga rioya qilishga chaqirildi.

So'ng talabalar o'rtasida 50 metr masofaga suzish bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqa natijalari:

1 o'rin – Ergashev Fozil

2 o'rin – Muxammadjonov Ilyos;

3 o'rin – Abdurasulov Dovud.

G'olib va ishtirokchilar diplom va esdalik sovgalar bilan taqdirlandi.



